

BOSHLANG 'ICH SINFLARDA SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISH METODIKASI

*DTPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Husinova Sharifa Muzaffar qizi*

*DTPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Miralieva Aziza Shuhrat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi haqida yozilgan. Ularning belgilari, qanday savolga javob bo'lishi haqida bilib oladilar. Har bir so'z turkumi va ularni o'rgatish metodikasi haqida tushuncha berilgan. So'z turkumlarini misollar bilan tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: so'z turkumlari, metodika, ot, sifat, fe'l, son, olmosh .

Аннотация: В данной статье описана методика преподавания лексики ученикам начальной школы. Они узнают об их признаках и о том, каков ответ на вопрос. Дается понимание каждой группы слов и методика их обучения. Фразы поясняются примерами.

Ключевые слова: словосочетания, способ, существительное, прилагательное, глагол, число, местоимение.

Abstract: This article describes the methodology of teaching vocabulary to elementary school students. They learn about their signs and what the answer to the question is. An understanding of each word group and the method of teaching them is given. Phrases are explained with examples.

Key words: phrases, method, noun, adjective, verb, number, pronoun

O'quvchilarga dars o'tishda metodlar katta ahamiyatga ega bo'lib, dars o'tish jarayonini osonlashtiradi va tez o'rgatishga yordam beradi. So'z turkumlarini o'rganish uchun har xil metodlardan foydalaniladi. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, gulladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun II sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima? –gul, bu so'z narsani bildiriyapti, ko'plikda qo'llanadi –gullar, bu ot; guldor so'zi qanday? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiriyapti, bu–sifat; gulladi so'zi nima qildi? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning holatini bildiriyapti, bo'lishsiz shaklda qo'llanadi . Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniqlikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Til

hodisasi sifatida o'ning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullardan biri "Klaster" usulidir. Klaster so'zi bog'lam ma'nosini bildiradi. Klasterlardan darsning da'vat, anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar tog'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu metod mavzuning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. "Klaster" metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash va guruh-guruh bo'lib ishlashda foydalanish mumkin. Mazkur metod o'rganilayotgan til hodisasini umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. "Klaster" da sinf yozuv doskasiga yoki katta varaqqa kalit so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplar yoziladi va kalit so'zlar til hodisasining aloqadorligiga qarab bog'lab boriladi. Klaster tuzishda, agar u doska yoki katta varaqda sinf jamoasi bilan bajarilayotgan bo'lsa, barcha o'quvchilarning ishtirok etishi shart.

O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, gulladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun II sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima? – gul, bu so'z narsani bildiriyapti, ko'plikda qo'llanadi – gullar, bu ot; guldor so'zi qanday? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiriyapti, bu – sifat; gulladi so'zi nima qildi? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning holatini bildiriyapti, bo'lishsiz shaklda qo'llanadi – gullamadi, bu – fe'l. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (terminlar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

Demak, so'z turkumlari ustida ishlash o'quvchilarning muayyan guruhlardagi so'zlarning umumlashtirilgan ma'nolari, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlarga qaratilishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z turkumi bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksikgrammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ular taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

- 1)so'z nima bildirishi (predmet, predmet belgisi, predmet sanog'i va tartibi, predmet harakati yoki holati);
- 2)qanday so'roqlarga javob bo'lishi;

3) o'zgarish-o'zgarimaslilik;

4) gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi.

O'quvchilar mana shu o'rganangan bilimlari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Buvazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega

Xulosa qilib shuni aytishim joizki, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darsining o'tilishi katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning o'qib tushinishi, tinglab tushinish, yozish savodxonligini, og'zaki va yozma shaklda fikrlarini yetkazib berishga bog'liqli so'z boyligini boyitishga, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashi, o'z fikrini tortinmasdan yetkazib berishi uchun yordam beradi. Albatta, bunday bilim va ko'nikmalarning boshlang'ich sinf davridayoq shakllanib borishi, ertangi kuni o'zi va mamlakatimiz uchun foydali kasb egasi bo'lishiga yo'naltiradi. Shuning uchun ham, biz, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z mutaxassisligimizni chuqur o'rganib, ertangi yosh avlodga chuqur bilim berib, qiziqishlaridan kelib chiqib, to'g'ri yo'lga boshlashimiz va kelajakda yurtimizga foydali mutaxassis bo'lib yetishishiga sababchi bo'lmog'imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektordagi nutqi.
2. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009.
3. Л. И. Рахматуллаева. Методика преподавания родного языка. Учебное пособие. Молия Иктисод, 2007.
4. Internet resurslari (Ziyonet).